

**“TASDIQLANGAN”**

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining 2023-yil 19 -“ Oktabr”dagi qarori bilan

“O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi v.b.

  
T. Muxamedjanov

2023-yil 19 -“ Oktabr” -son



**“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN”**

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari

  
V.Pak.

2023-yil 11 - oktabr



**AKSIYALAR QO‘SHIMCHA CHIQRILISHI TO‘G‘RISIDAGI QAROR**

**“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AKSIYADORLIK JAMIYATI**

Identifikatsiya raqami berildi:	R	4	1	0	4	D	0	2	9	0	T	0
---------------------------------	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

Egasining nomi yozilgan, hujjatsiz (naqdsiz) shakldagi, nominal qiymati 1 so‘m bo‘lgan 361 035 573 072 dona oddiy aksiyalardan iborat.

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi yopiq obuna usulida joylashtiriladi.

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi to‘rtinchi chiqarilishdir.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 19 -“ Oktabr”dagi 17 -son qarori bilan tasdiqlangan.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 19 -“ Oktabr”dagi 17 -son qarori asosida.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, muloqot telefonlari va elektron pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani, indeks: 180405, telefon: (+998 75) 612-50-05, elektron pochta: info@uz-potash.uz

**Emitent rahbari**

**Bosh buxgalter**

Muhr



**Zaripov To‘lqin Ergashevich**

  
Jumayev Samariddin Ziyadullayevich

2023-yil 19 -“ Oktabr”

1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli): **oddiy;**
2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli: **hujjatsiz;**
3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so'm): **1 (bir) so'm;**
4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona): **361 035 573 072 (uch yuz oltmish bir milliard o'ttiz besh million besh yuz yetmish uch ming yetmish ikki) dona;**
5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so'm): **361 035 573 072 (uch yuz oltmish bir milliard o'ttiz besh million besh yuz yetmish uch ming yetmish ikki) so'm;**
6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari:

**Aksiyadorlar:**

- jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;
- depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;
- jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek, sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

Shuningdek aksiyadorlar qonun hujjatlariga va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to'g'risidagi qarordagi har qanday cheklashlar:

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni olinishiga nisbatan jamiyat ustavida cheklashlar mavjud emas.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi qarori hamda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ yagona aksiyadorining qaroriga asosan "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatiga yopiq obuna usulida joylashtiriladi.

8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm): **2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to'qson ikki million to'qqiz yuz yigirma to'rt ming uch yuz o'n besh) so'm.**

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):

Avval har birining nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan **2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to'qson ikki million to'qqiz yuz yigirma to'rt ming uch yuz o'n besh) dona** egasining nomi yozilgan **oddiy hujjatsiz aksiyalar** joylashtirilgan.

10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi): **Jamiyat tomonidan obligatsiyalar chiqarilmagan va joylashtirilmagan.**

11. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi.

11.1. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):

**Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar “O‘zbekimiyosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga yopiq obuna usulida joylashtiriladi.**

11.2. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati:

**Aksiyalarni joylashtirish qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun davomida amalga oshiriladi.**

**Aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kun.**

**Agar joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, joylashtirishning boshlanish sanasi o‘sha kunlardan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi.**

**Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashgan sana, lekin qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim.**

11.3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining tartibi:

**Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushmagan bozorlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri bitimlar tuzish va “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyatida ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.**

11.4. Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘z ichiga olgan to‘liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:

**Mazkur chiqarilishdagi aksiyalarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshiriladi.**

**Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi davlat korxonasi to‘g‘risida ma‘lumot:**

**To‘liq nomi: “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” aksiyadorlik jamiyati.**

**Tashkiliy huquqiy shakli: aksiyadorlik jamiyati;**

**Joylashgan joyi: 100170, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi, 107-uy;**

**Pochta manzili: 100170, O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi, 107-uy;**

**Telefon: +(998 71) 267-37-42, faks: +(998 71) 267-35-92.**

**E-mail: info@deponet.uz, veb manzili: www.deponet.uz.**

11.5. Ushbu chiqarilishdagi joylashtirilayotgan aksiyalarni olishga bo‘lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

**Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida Jamiyat yagona aksiyadorining qarori qabul qilingan.**

11.6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:

**Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 (bir) so‘mdan joylashtiriladi.**

11.7. Aksiyalarni to‘lash shartlari va tartibi:



Aksiyalar uchun to'lovlar jami 361 035 573 072 so'mlik "Dehqonobod kaliy zavodi" AJga ajratilgan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kreditlari bo'yicha 2023-yil 15-iyul holatiga jamiyatning 165 067 912,11 (bir yuz oltmish besh million oltmish yetti ming to'qqiz yuz o'n ikki dollar o'n bir sent) AQSh dollari ya'ni 21.07.2023-yil holatiga jami 1 913 630 654 412,11 (bir trillion to'qqiz yuz o'n uch milliard olti yuz o'ttiz million olti yuz ellik to'rt ming to'rt yuz o'n ikki so'm o'n bir tiyin) so'm asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalarning farqi hisobidan Jamiyat buxgalterlik balansida tegishli o'tkazmalar orqali amalga oshiriladi.

11.8. Ushbu aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to'lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi:

**Aksiyalarning chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda jamiyat bu haqda ommaviy axborot vositalarida, Korporativ axborot yagona portalida ([www.openinfo.uz](http://www.openinfo.uz)), jamiyatning rasmiy veb-saytida ([info@uz-potash.uz](mailto:info@uz-potash.uz)) rasmiy xabar e'lon qiladi.**

**Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to'loviga yo'naltirilgan mablag'lar qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 10 kun ichida qaytariladi.**

12. Emitent tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi (qo'shimcha chiqarilishi) to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish tartibi:

**Ushbu aksiyalar chiqarilishi bilan bog'liq muhim faktlar to'g'risidagi ma'lumot (axborot) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda quyidagicha oshkor qilinadi:**

- Korporativ axborot yagona portalida (<http://openinfo.uz>) veb-saytida;
- Jamiyatning korporativ ([info@uz-potash.uz](mailto:info@uz-potash.uz)) veb-saytida;

**Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qaror asl nusxalari bilan barcha manfaatdor shaxslar "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ joylashgan manzili bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani manzilida, ish kunlari soat 10:00 dan 17:00 gacha tanishishi mumkin.**

**Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qaror nusxalarini manfaatdor shaxslar "Dehqonobod kaliy zavodi" AJga yozma murojaat qilib olishlari mumkin.**

13. Boshqa ma'lumotlar.

**Jamiyatning davlat tilidagi to'liq firma nomi: "Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyati.**

**Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR): 206 887 857;**

**Tashkiliy-huquqiy shakli (THSH): 213;**

**Amalga oshirayotgan faoliyat turi (IFUT): 20151;**

**Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili (MHOBT): 1710212.**

4 (to'rt) varaq tartib raqami bilan belgilanib, ip o'tkazib bog'langan va muhr bilan tasdiqlangan

**Emitent rahbari**

**T. Zaripov**

**Bosh buxgalter**

**S. Jumayev**

